



## DIALEKTLARNING SO‘ZLASHUV VA BADIY USLUBDAGI O‘RNI

*O‘quvchi: Turdiboyeva M*

*O‘qituvchi: Kultayeva F*

Insoniyat bor ekanki, turli til ham paydo bo‘laveradi. Til shunchaki muloqot vositasi emas, balki xalqning tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi jonli vositadir. Til - bu xalqning eng mukim, qimmatli xazinasini hisoblanadi, shu bilan birga, dialektizmlar, ya‘ni ma‘lum bir hududga xos bo‘lgan sheva so‘zlari xazinaning asosiy qismidir. Ular adabiy tildan farq qilsa-da, so‘zlashuv va badiiy uslublarda o‘ziga xos muhim vaziflarni bajaradi.

Dialektizmlar (sheva so‘zlari) umumxalq tilining tarkibiy qismi bo‘lib, adabiy tildan farqli o‘laroq, ma‘lum bir hududga xos bo‘lgan leksik, fonetik va grammatik birliklardir. Ular nutqning jonliligi, bo‘yoqdorligi va o‘ziga xosligini ta‘minlashda, ayniqsa, so‘zlashuv va badiiy uslubda muhim o‘rin tutadi. Shevada so‘zlashuvchi kishi o‘z his-tuyg‘ularini adabiy tildagi qoliplardan ko‘ra erkinroq va yetkazadi. So‘zlashuv uslubida dialektizmlar tabiiylik va muloqotdagi yaqinlikni ta‘minlaydi. Kundalik hayotda insonlar o‘z hududiga xos bo‘lgan so‘zlardan foydalanganda ularning fikri yanada emotsional va samimiy chiqadi. Masalan, vodiylarning "chaqchaqlashishi" yoki vohalarning o‘ziga xos bo‘lgan murojaat shakli o‘zgacha "shirin ta‘m" beradi. Sheva so‘zlari so‘zlovchining qayerdan ekanligini bildirish barobarida, suhbatdoshlar o‘rtasidagi uzoq masofani qisqartiradi, muhitni erkinlashtiradi.

Badiiy uslubga kelsak, dialektizmlar yozuvchi va shoirlarning eng kuchli qurollaridan biri. Badiiy asarda sheva so‘zlari shunchaki ishlatilmaydi, balki ular ma‘lum bir estetik vazifani bajaradi. Shu sababdan, barcha yozuvchilar ijodida dialektizmlarning yorqin va rang-barang turlarini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa dialektizmning til sathidagi o‘rni qanchalik keng ekanligini isbotlaydi.



Birinchi dan, o'quvchi asarni o'qiyotganida voqealar qaysi qishloq yoki qaysi shaharda bo'layotganini undagi shevalar orqali his qiladi. Abdulla Qodiriy yoki Shukur Xolmirzayev asarlari bunga yaqqol misol bo'la oladi, chunki ularning ijodini bu so'zlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. "O'tkan kunlar" romanini ilk bor varaqlagan kishi ham bu voqealarning toshkentlik Otabekning boshidan o'tayotgan sinovlar ekanini aynan uning shevasidan bilib oladi.

Ikkinchi dan esa qahramonning ijtimoiy kelib chiqishi yoshi va dunyoqarashini ko'rsatishda dialektizmlar aynan qo'l keladi. Oddiy qishloq kishisi tili bilan shaharlik ziyoli tilining farqi asar hayotiyiligini oshiradi. Qahramonning tiliga qarab uning kimligini, yoshini va qanday muhitda o'sganini bilib olish mumkin. Masalan, nuroniy otaxonning nutqidagi shevaga xos so'zlar uning donoligi va xalqqa yaqinligini ko'rsatadi. Yosh qahramonlarning nutqida esa soddalik va hali hayot qiyinchiliklarini ko'rmaganliklari ham aynan bo'yoqdor so'zlar orqali mukammal tasvirlab beriladi. Surxon yurtining iste'dodli farzandi, serqirra ijod sohibi Shukur Xolmirzayev o'z asarlarida shevaga xos so'zlardan unumli foydalangan. Yozuvchi ijodidagi shevaga xos so'zlar mahalliy koloritni boyitish hamda asar xalqchilligini ta'minlash maqsadida qo'llanilgan. Shukur Xolmirzayev ijodida, asosan, Surxondaryo shevalariga xos fonetik, morfologik va leksik xususiyatlar asar ta'sirchanligini ta'minlab, badiiy asar obrazlilikini va jozibadorligini oshirishga xizmat qilgan. "Uning otasi Rahmon polvon qirq yoshida ham kurashda yiqilmagan, keyin bir o'rta yashar o'rtacha polvon bir qoqmada yiqitib qo'ygani – dardi shunchalikki, omborga bo'yra to'shab, ustidan suv sepib, unga bag'rin berib yota-yota oldin yo'talni orttirib, keyin qon qusa-qusa o'lib ketgandi" (Omon ovchining o'limi). Ushbu gapdagi qoqma so'zi kurashda chalib yiqitish ma'nosiga esa. Bu so'z boshqa hududda yashovchilar uchun tushunarsiz bo'lishi tabiiy. Biroq Shukur Xolmirzayev leksik dialektizm orqali o'sha hududga xos bo'lgan milliy an'ana va odatlarni ifodalagan. Yozuvchi o'z yurtiga bo'lgan cheksiz muhabbatini xalqning asosiy boyligi bo'lgan sheva so'zlardan foydalanganida deb bilish mumkin. "Omon bir kuni ovdan quruq qaytdi: zovboshida bir qobon, bir megajin va o'ntacha churpani kamarga qamab chiqishini kutib yotgan edi, tepada geologlarning vertolyoti paydo



bo‘ldi-da, naq kamar ustiga pasayib shunday shovqin ko‘tardi, shamoli joni qattiq archalarni ham titratdiki, qamaldagi cho‘chqalar sel bosganday vahimada chiqib, xuddi Omon pisib turgan archa tagiga o‘zlarini urdi. Omon kalovlanib, archa orqasiga o‘ta oldi, xolos. Cho‘chqalar odamning beliga uradigan miyazorga oralab, ilonizi yo‘l qoldirib ketibdi” (Omon ovchining o‘limi). Zovboshi deb kichik jarlikning boshiga aytiladi. Yozuvchi ushbu leksik dialektizm orqali asar qahramonining tog‘li joylardagi hayotini aniq va obrazli tarzda ifodalashni ko‘zlagan. Yovvoyi cho‘chqa esa Surxon xalqi shevasida qobon deb nomlanishi hikoyani o‘qish jarayonida seziladi. Qobon bolasi o‘sha hududdagi xalq uchun churpa deb ataladi. Parchada qo‘llangan kamar shevaga xos so‘zi berk joyni ifodalaydi. Bundan bilinadiki, tog‘li hududda yashovchilar kamardan yovvoyi cho‘chqalar uchun boshpana sifatida foydalanishadi. Shukur Xolmirzayev ushbu parchadagi shevaga xos so‘zlar vositasida qahramonlari, ular harakatlanayotgan hudud, yuz berayotgan voqea-hodisaning jonli tasviriga erishgan.

Xulosa qilib aytganda, dialektizmlar tilimizning eng qimmatli boyligidir. Tilni kamal akka qiyos qilsak, dialektizmlar, turli hududlarga xos bo‘lgan turli shevalar bu kamalakning yorqin ranglaridir. Ular so‘zlashuvga jonlilik, badiiy asarga esa hayotiylik baxsh etadi. To‘g‘ri o‘rinda qo‘llangan shevalar shu til xususiyatlarini ham ko‘rsatib beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shukur Xolmirzayev. "Tanlangan asarlar" (3 jildlik), 2-jild. "Sharq" nashriyoti, 2005-yil. Toshkent
2. S. Mutallibov. "Morfologiya va leksika tarixidan". "Fan" nashriyoti, 1959-yil. Toshkent
3. H. Jamolxonov. "Hozirgi o‘zbek adabiy tili". Toshkent, "Talqin", 2005-yil. "Leksikologiya. O‘zbek shevalari" qismidan
4. . Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova va M. Abuzalova. "Hozirgi o‘zbek adabiy tili" 2009-yil: "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent